



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

**mavzusidagi an’anaviy VII respublika
ilmiy-amaliy anjuman materiallari**



Ergasheva N. O‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda grafik organayzerlardan foydalanish usullari	227
Maxsumov M. Yusuf Saryomiy devoni manbalari tadqiqi	236
Vohidova M. Muhammad Namangoniy – Foyiq she‘riyati tahlili	244
Meyliyeva N. Alisher Navoiyning “Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz” ruboiysi vazni metodikasi	252
Rayimqulova D. Jamshid obrazining “Avesto” va mumtoz adabiyotdagi talqini	255
Qoryog‘diyeva S. Adabiy lug‘atlar haqida	260
Qulsaxatov F. Uzluksiz ta‘lim tizimida integrativ yondashuv (Bobur ijodi talqinida)	267
Djalilova M. Odil Yoqubov dramaturgiyasida amir temur obrazi tasviri	277
Kuchkarova K. Oybekning qahramon xarakterini tasvirlash mahorati	281
ONA TILI TA‘LIMIDA O‘QITISH VA BAHOLASH MUAMMOLARI	
Ahmedov H. O‘zbek tilidan rivojlantiruvchi topshiriqlar bo‘yicha mulohazalar	285
Mavlonova K. Matn tuzishni o‘rgatishda darsliklardagi o‘quv materiallaridan foydalanish mazmuni	290
Xudoybergenova Z. Kuldasheva S. Nutqiy va lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishda multimediali ta‘limning o‘rni	296
Berdiyeva N. Og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari	300
To‘rayeva Sh. Imlo savodxonligini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish	304
Mahkamova D. “Til texnologiyasi” terminining metodik talqini	308
Ergasheva N. Ona tili ta‘limida zamonaviy metodlarning qo‘llanishi	313
Sharopova F. O‘qib tushunish ko‘nikmasini aniqlash usullari	317
Turg‘unova N. O‘quv loyihalari bilan ishlashning pedagogik asoslari	323
Mirzaraxmedova F. Yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda og‘zaki nutqning ahamiyati	326

2. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: f.f.n.diss. – T.O'zMU, 2008.

3. David Nunan. Language teaching methodology. Macquarie university. 1991.

4. Elizabeth Tighe. Assessing the direct and indirect effects of metalinguistic awareness to the reading comprehension skills of struggling adult readers. Springer Nature B.V. 2018.

5. Handbook of Research on Teaching the English Language Arts, Diane Lapp, Douglas Fisher. Taylor & Francis 2010.

6. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. (Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma), «SHARQ» Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent, 2019.

O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Nilufar Turg'unova

*Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU tayanch doktoranti*

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim texnologiyalari, xususan, loyiha ta'lim texnologiyasining mazmuni, maqsadi, ta'limda qo'llashning ahamiyati haqida so'z yuritilgan. O'quv loyihalarining tasnifi va bajarilish bosqichlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, loyiha texnologiyasi, o'quv-loyihaviy faoliyat, o'quv loyihasi, tadqiqotchilik.*

Bugungi kunda kreativ, faol, har bir sohada erkin fikr yurita oladigan o'quvchini tarbiyalash ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabda o'tiladigan dars mashg'ulotlarida o'quvchini faqatgina nazariy bilimlar bilan qurollantirib qolmasdan, olingan bilimlarni bevosita amaliyotda qo'llash, real vaziyatlarda foydalana olish ko'nikmalarini ham shakllantirish zarur. Buning uchun ta'limda bir qator texnologiyalar, interaktiv usullardan foydalanish ijobiy natija beradi. Xususan, loyiha ta'lim texnologiyasi o'quvchini tadqiqotchilikka undaydigan eng samarali texnologiyalardan biridir.

Pedagogik texnologiya atamasiga pedagog olimlar tomonidan turlicha ta'riflar keltiriladi. V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. M.V.Klarin pedagogik texnologiyaga pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibi degan ta'rifni beradi. O'zbek olimi Azizxo'jayev turli olimlarning qarashlarini o'rgangan holda quyidagi ta'rifni keltiradi: ta'lim texnologiyasi deganda ta'limning belgilangan maqsadi va talabaniing bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi. [Sharopova, 2019; 75]

Pedagogik texnologiyalar orasida loyiha ta'lim texnologiyasi alohida o'rin tutadi. Loyiha ta'limi texnologiyalaridan o'quv amaliyotida foydalanishda "o'quv loyihaviy faoliyat" tushunchasi ham qo'llanadi. O'quv loyihaviy faoliyat – o'quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo'lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi. [Sharopova, 2019; 237]

Loyiha ta'lim texnologiyasiga oid ilk qarashlar XX asr boshlarida AQShda vujudga kelgan bo'lib, uning ilmiy asoslari amerikalik pedagog va faylasuf Djon Dyui va uning shogirdi V.X.Kilpatrik tomonidan ishlab chiqildi. Keyinchalik mazkur texnologiyaga rus pedagoglari ham e'tibor qarata boshlashdi va 1905-yilda S.T.Shatskiy boshchiligidagi ishchi guruh loyiha texnologiyasini ta'limda qo'llay boshladilar [Беликова].

Ma'lumki, ta'lim texnologiyalari bir nechta dars jarayonlarini qamrab olib, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Loyiha texnologiyasidan foydalanishda ham dastlab o'quvchilarga muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot beriladi. So'ngra loyihaning bajarilish tartibi, o'quvchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar bir nechta dars davomida bayon etib boriladi. O'quvchilar loyihaning mazmunini to'liq anglagach, qo'yilgan talablar asosida vazifalarni bajarib loyiha ishini taqdim etadilar. Ishning natijasi turli xil ko'rinishda bo'lishi mumkin: taqdimot, ma'ruza, sahna ko'rinishi,

maqola, intervyu, devoriy gazeta, strategiya, o'quvchilar tomonidan tayyorlangan kitoblar, gazetalar va hokazo.

Har bir loyiha zahirida aniq maqsad, muammo bo'lishi zarur. O'quv loyihalarini bajarishdan avval o'quvchilar o'zlari uchun quyidagi ko'rinishda yo'riqnoma tuzib olishlari lozim:

Loyihaning mavzusi – nima maqsadda biz bu loyihani bajaryapmiz? (loyihaning dolzarbligi, motivatsiya)

Loyihaning maqsadi – nima uchun biz bu loyihani bajaryapmiz? (maqsadni belgilash)

Loyiha topshiriqlari – qanday bajarishimiz mumkin? (vazifalarni belgilab olish)

Metodlar – nima yuzaga keladi? (usullar va metodlarni tanlab olish, rejalashtirish)

Natija – nimaga? (kutilayotgan natija)

O'quv loyihalari turli xil ko'rinishlarda bajarilishi mumkin. Pedagogika fanlari doktori Y.S.Polat o'quv loyihalarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Faoliyat turiga ko'ra: axborot beruvchi, tadqiqotchilikka asoslangan, amaliy, ijodiy, rollo-o'yinli loyihalar.

2. Ishtirokchilar soniga ko'ra: individual, juftlik, jamoaviy loyihalar.

3. Murakkabligiga ko'ra: monoloyiha, fanlararo loyiha.

4. Davomiyligiga ko'ra: mini loyiha (bitta darsga mo'ljallangan), qisqa muddatli (4-6 dars), haftalik (30-40 dars soatini qamrab oladi), uzoq muddatli (yillik, asosan, darsdan tashqari vaqtda bajariladi). [Polat, 2005; 71]

O'quvchilarning o'quv loyihaviy faoliyati quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi – loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish (auditoriya ishi).

2. Loyihani bajarish bosqichi – auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan amaliy faoliyat

3. Yakunlovchi bosqich – loyiha taqdimoti, talabalar faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiyasi (auditoriya ishi) [Sharopova, 2019; 238].

Mazkur texnologiyaning afzallik tomoni shundaki, o'quvchilar o'rgangan nazariy ma'lumotlarini bevosita amaliyotda sinab ko'rish

imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, loyiha ta'lim texnologiyasi o'quvchilarda tadqiqotchilik, ijodkorlik, jamoa bilan ishlash, mas'uliyatlilik sifatlarini shakllantirishda, ulardagi yashirin qobiliyatlarni kashf etishda muhim rol o'ynaydi. Loyiha ta'lim texnologiyasidan barcha fanlarni o'qitishda, xususan, ona tili va adabiyot ta'limida ham samarali foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharopova Z.F. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. – T.: Navro'z, 2019.

2. Беликова Е.В. Метод проектов в образовании <https://urok.1sept.ru/articles/648795>

3. Пахомова Н.Ю. Метод учебного проекта в образовательном учреждении АРКТИ, 2005.

4. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования [Текст]: учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров / Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина, М.В. Моисеева, А.Е. Петров. – М.: Издательский центр «Академия», 2005.

YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OG'ZAKI NUTQNING AHAMIYATI

Firuz Mirzaraxmedova
*Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU magistranti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada orfoepiya va orfografiyaning o'zaro uyg'unligi, orfografiyada tinish belgilarining o'rni haqida qisqacha fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: orfografiya, orfoepiya, nutqiy ko'nikma va lingvistik bilim, punktuatsiya.

Hozirgi kunda ona tilimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirilmoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida "Milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, chet tilini bilish – zamon talabi, ammo